

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60611400-Pochta aloqasi texnologiyasi bakalavriat ta'lif yo'naliishining malaka
talablari*

YzP OYMTB
SIZGIZ N 344
7 08 2023

Toshkent - 2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
2.4. Kvalifikatsiya.....	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i	11

1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarining qo'llanilishi

Malaka talabi 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma yoki bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasalarining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalarini;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari

60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, pochta sohasiga oid korxonalar va ularning tuzilmaviy tizimlarining barcha shaklida xizmat ko'rsatish, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida;
- pochta sohasiga tegishli korxona va tashkilotlarda;
- raqamli texnologiyalar va tegishli vazirliklar tizimidagi korxonalarda;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida;
- davlat harbiy sohasi, ichki ishlar organlarida;
- davlat boshqaruv organlari, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat

muassasalarida kompleks masalalarni yechishda.

60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pochta texnologiyalari, logistika, mahsulot yetkazib zanjirlarini boshqarish, tarqatishni rejalashtirish, taqsimlash logistikasi, pochta transporti, pochta omborlari, zahiralarni boshqarish, pochta faoliyatini axborot bilan ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro pochta, oqimlar logistika tizimlarini tahlil qilish va loyihalashtirish fanlaridan zamonaliviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, logistika sohasidagi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *pedagogik (o'rta maxsus, kasb humar ta'limi tizimida).*

1.2.4. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari

60611400- *Pochta aloqasi texnologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- namunaliviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- axborot-kommunikatsiya tizimlarining texnik vositalari, qurilmalari, uzatish, saqlash va qayta ishslash tizimlarini yig'ish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzab masalalarini bilih. O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan bilimlarga ega bo'lism, mustaqil tahlil qilish, Vatan tarixi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyalar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olish va ilmiy asoslash, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan nuqtai nazarga ega bo'lism;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlarni mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zururiy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaliviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilih;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullaridan foydalanish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh bo'lism, yangi bilimlarni mustaqil egallash, o'z ustida ishslash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarni tashkil etish:
 - namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
 - pochta sohasida loyihalash usullarini tadqiq qilish;
 - ma'lumotlar qayta ishlash jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash va optimizatsiyalash usullarini qo'llash, mahsulotni sertifikatlashtirish;
 - pochta sohasi qurilmalarining dasturiy ta'minotini yaratishda axborot bilan ishlash jarayonlari bo'yicha matematik modellarni qo'llash;
 - pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlarga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olgan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtiroy etish;
- pochta sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida logistikaga oid o'qitilayotgan fanlar hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, texnik vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60611400 - Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrashchlarni rivojlantirish, to'g'ri xulsa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlarni mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil

asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallahash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;

- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- pochta texnologiyalari va pochta sohasi haqida tushunchalar va ularning klassifikatsiyasi, ularning mohiyati, asosiy xususiyatlari;

- pochta texnologiyalarining marketing va boshqa funksional bo'limlar bilan o'zaro bog'liqligi;

- pochta texnologiyalarining funksional sohalari: tarqatish, ishlab chiqarish logistikasi, taqsimlash, pochta transporti, omborlar, zahiralarni boshqarish, axborot logistikasi;

- logistik tizimlarni tadqiq qilish, logistik tizimlarda boshqaruv masalalarini tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilish;

- pochta texnologiyalarini tahlil qilish va loyihalashtirish;

- nazariya va amaliyot borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallahshi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallahga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar) - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklari bo'yicha soatlar va kreditlar

O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4620	154
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar)	360	12
Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14

2.3.2. 61011000- 60611400- Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4620	154	1-7
1.01	HIST14MBK	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	RELS14MBK	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	PHIL14MBK	Falsafa	120	4	2
1.04	FRLG14MBK	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	CALC18MBK	Hisob(Calculus)	180	6	1
1.06	PHYS16MBK	Fizika	300	10	1,2
1.07	DFEQ14MBK	Differensial tenglamalar	120	4	2
1.08	DSST16MBK	Diskret tuzilmalar	120	4	2
1.09	PROG16MBK	Dasturlash	360	12	1,2
1.10	ACWR12MBK	Akademik yozuv	120	4	1
1.11	DTBS16MBK	Ma'lumotlar bazasi	180	6	3
1.12	CYSF16MBK	Kiberxavfsizlik asoslari	180	6	3
1.13	DTSA16MBK	Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar	180	6	3
1.14	WEBI16MBK	Web ilova yaratish	180	6	3
1.15	CORG16MBK	Kompyuterni tashkil etish	180	6	3
1.16	CMNT16MBK	Kompyuter tarmoqlari	180	6	3
1.17	FOAI16MBK	Sun'iy intellekt asoslari	180	6	4
1.18	POCT16MBK	Pochta aloqasi texnologiyasi	180	6	4
1.19	OSYS16MBK	Pochta aloqasi logistikasi	180	6	5
1.20	POCI16MBK	Pochta aloqasi infrastrukturasi	120	4	6
1.21	PRSL16MBK	Yetkazib berishni boshqarish	240	8	5
1.22	ASPK16MBK	Pochta aloqasida avtomatlashtirilgan tizimlar	180	6	7
1.23	PBST16MBK	Ehtimollik va statistika	180	6	4
1.24	OSYS16MBK	Operatsion tizimlar	180	6	5
1.25	INDP12MBK	Individual loyiha	120	4	6
1.26	EMBS16MBK	O'rnatilgan tizimlar	180	6	6
1.27	PHED10MBK	Jismoniy tarbiya*			
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-8
		Jami	6420	214	1-8
		Malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar)	360	12	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14	8
		Jami	780	26	
		Hammasi	7200	240	

Izoh: Jismoniy tarbiya fakultativ fan

2.4. Kvalifikatsiya Pochta aloqasi texnologiyasi

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy kompetensiyalar, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari, bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining turlari, umumi kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, majburiy fanlar, tanlov fanlari, kvalifikatsiya, yakuniy davlat attestatsiyasi, malakaviy amaliyot, logistika. Pochta aloqasi texnologiyasi, logistik tizimlar, oqim, axborot oqimi, axborot texnologiyalari, logistikaning funksional sohalari, pochta aloqasi texnologiyasi, Mahsulotlarni yetkazi berish xizmati.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Rektor

prof. B.Maxkamov

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlanтиrish tadqiqotlari markazi

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti

Direktor

Sh.Yakubov

M.O'

2023 yil

06 » 08

Rektor

prof. S.Turabdjanov

M.O'

2023 yil

25 » 07

O'zbekiston pochtasi AJ

Moliya bo'yicha
direktor

R.Dadamuhamedov

M.O'

2023 yil

25 » 07



Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 60611400-Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"28" 07 2023- yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori prof. B.Maxkamov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti prof. S.Turabdjanov, O'zbekiston pochtasi AJ Moliya bo'yicha direktori R.Dadamuhamedov birqalikda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishining malka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, qelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60611400-Pochta aloqasi texnologiyasi ta'lif yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sun farmoni, 2017- yil 20- apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sun, 2017- yil 27- iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxasislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sun, 2018- yil 5- iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiroqini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sun qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 15- iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-sun farmoyishiga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'eriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori

prof. B.Maxkamov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori

prof. S.Turabdjanov

O'zbekiston pochtasi AJ Moliya bo'yicha direktori

R.Dadamuhamedov

